

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AVULOVA NARGIZA TOXIROVNA**

**O'QUVCHINING BO'SH VAQTINI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA  
SINF DAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02. – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Avulova Nargiza Toxirovna**

О‘quvchining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishda sinfdan tashqari tarbiyaviy  
ishlar metodikasini takomillashtirish ..... 3

**Авулова Наргиза Тохировна**

Совершенствование методики учебной деятельности вне урока для  
правильной организации свободного времени обучающегося ..... 25

**Avulova Nargiza Toxirovna**

Improving the methodology of educational activities outside the lesson  
for the proper organization of the student’s free time ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of publications ..... 57

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AVULOVA NARGIZA TOXIROVNA**

**O'QUVCHINING BO'SH VAQTINI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA  
SINF DAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02. – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3316 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xodjamqulov Umid Negmatovich  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:** Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna  
pedagogika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "21" 09 kuni soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu\_kengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2024 yil "29" 08 kuni tarqatildi). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-o'y. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "29" 08 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "29" 08 kuni tarqatildi) (2024 yil "29" 08 kuni tarqatildi) raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.Matchonov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,  
p.f.d., professor

**F.T.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
p.f.d. (PhD), dotsent

**V.B.Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari aspektida mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotida unga moslashish bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Makon va zamon tushunchalarining ahamiyati tobora pasayib borayotgan hozirgi kunda shaxsning ma'naviy barqarorligini ta'minlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ma'naviy rivojlanishi va jismoniy salomatligini saqlash, shuningdek, mustaqil fikrlaydigan, faol, axloqiy tamoyillarga ega fuqarolarni tarbiyalash zarurati ortmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) ning dunyo mamalakatlaridagi maktab ta'limining sifatini baholovchi PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro dasturida ta'lim sifati o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali va maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga ham bog'liq ekanligi qayd etilgan. Shu jihatdan insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida muayyan ta'lim oluvchi shaxsi misolida uning har tomonlama rivojlanishining muhim omili bo'lgan bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish masalasi pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida "bo'sh vaqt" ("freye time") tushunchasi, uning mazmunini aniqlashtirish va shakllarini tasniflash, unga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini boshqarishda ta'lim muassasalari rolini kuchaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda o'quvchilarning bo'sh vaqtini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil qilishning pedagogik asoslari, o'quvchining maktabdan tashqari bo'sh vaqtini oqilona tashkil qilishda ta'lim muassasasi roli va ahamiyati, "bo'sh vaqt" tushunchasining ko'p omilli pedagogik muammo ekanligi, mazkur tushuncha doirasida o'quvchilarning huquq va burchlarining to'qnash kelishi bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy jihatlar o'rganilgan. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish orqali ularda tayanch kompetensiyalarni kognitiv, motivatsion, faoliyatga doir va kreativ yondashuvlar orqali shakllantirish, bo'sh vaqtga ta'sir qilish orqali o'quvchilarda zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimni takomillashtirishga zarurat ortmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda umumta'lim maktablarida o'quv-pedagogik jarayonga zamonaviy va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda o'qituvchilar mehnatini munosib rag'batlantirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash orqali ta'lim sifatini xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan xalq ta'limi tizimining oldiga "2030 yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi

bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish"<sup>1</sup> vazifasi yuklatilgan. Umumta'lim maktablarining o'quvchilarda ta'limga bo'lgan munosabatni yaxshilash, o'quvchi vaqtini to'g'ri taqsimlash orqali ularning foydali ish koeffitsiyentini oshirish, xususan, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini maqsadga muvofiq tashkil qilishda ta'lim muassasalari va ota-onalarning rolini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish bilan bog'liq ko'p omilli pedagogik muammoni mavjud holatni inobatga olgan chuqur tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda ta'limni isloh qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda 781-son "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda maktab o'quvchilarining sinfdan tashqari ishlarini, faoliyatini tashkil qilishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari Sh.Mardonov, A.Xalikov, A.Sadikova, F.Ibragimova, N.Artikova, R.Shermetov, E.Norquvvatov; maktab o'quvchilarida yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Matchonov, Q.Yo'ldoshev, M.Quronov; o'quvchi shaxsini kompleks rivojlantirishda sinf rahbarlarining funksiyalari va faoliyat yo'nalishlari, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash shart-sharoitlari, mexanizmlari, tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, o'quvchilar madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari N.M.Koshanova, M.Vahobov, U.Begimqulov, M.Mahmudov, S.Nishonova, M.Yuldashev, B.A'zamova; o'quvchilarning qobiliyatlarini erta aniqlashda klaster yondashuvi imkoniyatlari, o'quvchilarning bo'sh vaqtini unumli tashkil qilish jarayonida ta'lim sub'ektlarining roli va ahamiyati, uzluksiz ta'limning asosiy tashkiliy-pedagogik, didaktik shart-sharoitlari, ta'lim sifati

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.

samaradorligiga erishishda uslubiy yondashuvlarini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish texnologiyalari R.Djurayev, S.A.Toshtemirova, J.Yo‘ldoshev, R.Ahliddinov, M.Yuldashev, M.Vahobovlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlari hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan G.Grushin, G.A.Yefteyeva, B.I.Dubson, V.V.Juravlev, G.Ye.Zborovskiy, S.A.Kravshenko, L.K.Kruglov, Ye.V.Bondarevskaya, L.I.Novikovalar umumta‘lim maktablari o‘smir-yoshlari bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini; Ye.I.Grigoreva, T.G.Kiselova, Yu.D.Krasilnikova, A.D.Jarkova, N.F.Maksyutina, Ye.V.Sokolovalar “bo‘sh vaqt” tushunchasining mazmuni, “dam olish madaniyati” va uning sub‘ektlari, tuzilmalari, funksiyalarini; K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, S.T.Shatskiy, P.P.Blonskiy, A.V.Mudrik, N.L.Selivyanova, N.Krupskaya, K.S.Romanovalar bo‘sh vaqtni tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlarini, uning shaxsni rivojlantirish va maktab o‘quvchilarining ta‘limiga, ma‘naviyati va dunyoqarashini shakllantirishga ta‘siri masalasini; N.N.Vodomerov, F.A.Gimadeyeva, S.Sh.Lukmanova, M.V. Muxamedyanova, L.K.Petrova, Sh.A.Amonoshvili, O.S.Gazman, V.A.Krakovskiy, B.A.Trebugovlar o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil qilishning shart-sharoitlari, bo‘sh vaqtning ijtimoiy mohiyati, uning tuzilishi, shaxsning rivojlanishida asosiy funksiyalarini; D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.N.Terskiylar bolalar hayotida bo‘sh vaqtni pedagogik tashkil etishning inson hayotidagi ahamiyatini; M.G.Bushkanatets, B.A.Grushin, G.A.Yevteyeva, Ye.V.Sokolov, P.Vinogradov, N.D.Grayevskoy, V.I.Jidak, V.L.Zaysevlar shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda bo‘sh vaqtdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, maktab o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning dolzarb muammolari masalasini, V.A.Suxomlinskiy, G.I.Kutsenko, I.F.Kononov, V.R. Yasnitskaya, A.V.Mudrik, I.V.Sarkisova, S.A.Shmakov yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil qilish masalalari, bolalar hayoti va ularning ijtimoiylashuv jarayonida bo‘sh vaqtning o‘rni masalasini; G.M. Andreyeva, V.R.Bitinas, V.G.Bocharova, V.Z.Vulfov, A.N.Leontiyev, A.V.Mudrik, Ye.M.Gorenkov, A.Ya.Jurkina, L.A.Permakov va boshqalar ijtimoiy ta‘lim muammolari, maktab o‘quvchilarini bo‘sh vaqtda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarining mohiyati, mazmuni va tuzilishi, o‘quvchilar bo‘sh vaqtda sinfdan tashqari ishlarning tarbiyalovchi mohiyati, mazmuni va tuzilishi kabi muammolarni, Ye.M.Gorenkov, A.Ya.Jurkina, S.V.Salseva muammolari; V.I.Andreyev, I.P.Volkov, O.S.Gazman V.A.Gorskiy, M.V.Koval, N.V.Andreyenkova, L.V.Baiborodova, I.S.Kon, A.V.Mudrik, M.I.Rojkov qo‘shimcha ta‘lim muassasalari sharoitida maktab o‘quvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil qilishda jamoat tashkilotlari va birlashmalari faoliyati bo‘yicha tizimli tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijiy olimlardan L.R.Arbek, X.Gril, R.Gvardini, M.Parmente, S.Hellokamps, F.Shmeydr, G.Spenser, R.Sorokin va boshqalar o‘smir yoshlarda o‘z-o‘zini tarbiyalash muammosi; nemis olimlaridan L.Veber, B.Myuller, V.Narstedt, P.Pluskva, V.Xornshteyn, B.Engholm kabi olimlar bo‘sh vaqt, uning shaxs, xususan, ta‘lim oluvchi shaxsi takomilidagi roli bilan bog‘liq muammolarni o‘rganganlar.

O'quvchilarning darsdan tashqari bo'sh vaqtining to'g'ri tashkil qilinishi, kun tartibining aqliy va jismoniy ko'rsatkichlariga ta'siri, bo'sh vaqtini tashkil qilish ishlarida oila va maktab o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllari va usullarini o'rganishga bo'lgan zarurat mazkur tadqiqot ishimizning mavzusini belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining FZ-002/045674 - "Umumta'lim maktablarida fanlarni integratsiyalab o'qitishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish" (2020-2023 yy.) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"bo'sh vaqt" tushunchasining pedagogik muammo sifatidagi mazmunini aniqlashtirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning didaktik asoslarini takomillashtirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning amaliy texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi 16-sonli, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 76-sonli, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi 88-sonli va Farg'ona viloyati So'x tumanidagi 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 461 nafar o'quvchilari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishning amaliy texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda bilish nazariyasining adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy taqqoslash, analiz, sintez), diagnostik (so'rovlar, kuzatish, test, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) kabi usullar majmuidan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

"bo'sh vaqt" tushunchasining pedagogik muammo sifatidagi mazmuni jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi talabiga mos holda o'quvchilarda deviant xatti-harakatlar maydonini kamaytirishning ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik, tibbiy-pedagogik va individual shaxsiy pedagogik komponentlarini sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasiga vertical va gorizontol integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning didaktik asoslari o'smirlarning bo'sh vaqtdan foydalanish bo'yicha individual madaniyatini shakllantirish, vaqt budjetini to'g'ri taqsimlashga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirishning moslashuvchanlik, ijodkorlik, muvaffaqiyat va yaxlitlik tamoyillarini ta'lim mazmuniga integrativ asosda singdirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlari maktab va oila hamkorligining pedagogik shartlarini o'quvchi shaxsini rivojlantirish yo'nalishlariga sog'lomlashtirish va rivojlantirish texnologiyasi talablariga muvofiq adekvat qo'llash asosida takomillashtirilgan;

vitagen ta'lim integratsiyasi hamda ta'lim shakllari imkoniyatlaridan foydalanishning integral tizimlariga muvofiq o'quvchilar rivojlanish vektorini belgilashning didaktik tamoyillarini qo'llash hamda sinfdan tashqari ishlar metodikasini jamiyatning o'zgaruvchan talablariga muvofiq optimallashtirish asosida o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishning mezon va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha o'quv-uslubiy va didaktik ta'minot ishlab chiqilgan;

sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha interfaol amaliy dars ishlanmalari yaratilgan;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish texnologiyalarini takomillashtirish texnologiyalarini amaliyotga joriy etishning uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablari o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishni pedagogik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirishning mezonlari va ko'rsatkichlari, "bo'sh vaqt" tushunchasining pedagogik mazmuni aniqlashtirilganligi, "O'quvchi bo'sh vaqtining to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning funksional modeli" ishlab chiqilganligi, mavzu doirasida taklif qilinayotgan mexanizm va texnologiyalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini boshqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, ilmiy-metodik xulosalar, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishning mezon va ko'rsatkichlari, yaratilgan o'quv-uslubiy majmua va dasturiy ta'minot hamda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishni pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amaliyotga joriy etishning uslubiy ta'minot materiallari, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ishlab chiqilgan interfaol amaliy dars ishlanmalaridan ta'lim amaliyotining sinfdan tashqari ishlarni va o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini maqsadga muvofiq tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumta'lim maktablari o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi talabiga mos holda o'quvchilarda deviant xatti-harakatlar maydonini kamaytirishning ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik, tibbiy-pedagogik va individual shaxsiy pedagogik komponentlarini sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasiga vertikal va gorizontaal integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan "bo'sh vaqt" tushunchasining pedagogik muammo sifatidagi mazmuni, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishning mezon va ko'rsatkichlari bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialining 2023 yil 8- sentyabrdagi №456-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik va uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan;

o'smirlarning bo'sh vaqtdan foydalanish bo'yicha individual madaniyatini shakllantirish, vaqt budjetini to'g'ri taqsimlashga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirishning moslashuvchanlik, ijodkorlik, muvaffaqiyat va yaxlitlik tamoyillarini ta'lim mazmuniga integrativ asosda singdirish asosida takomillashtirilgan o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning didaktik asoslari, maktab va oila hamkorligining pedagogik shartlarini o'quvchi shaxsini rivojlantirish yo'nalishlariga sog'lomlashtirish va rivojlantirish texnologiyasi talablariga muvofiq adekvat qo'llash asosida takomillashtirilgan o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filiali tomonidan bajarilgan I1-XT-0-17222 raqamli "Qoraqalpoq milliy mentalitetini o'quvchi yoshlarga singdirishda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish" mavzusidagi amaliy loyihasini

bajarishda foydalanilgan ((O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialining 2023 yil 8- sentyabrdagi №456-son ma'lumotnomasi). Natijada, xalq pedagogikasida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlashga qaratilgan qarashlar loyiha mazmuniga singdirilgan;

vitagen ta'lim integratsiyasi hamda ta'lim shakllari imkoniyatlaridan foydalanishning integral tizimlariga muvofiq o'quvchilar rivojlanish vektorini belgilashning didaktik tamoyillarini qo'llash hamda sinfdan tashqari ishlar metodikasini jamiyatning o'zgaruvchan talablariga muvofiq optimallashtirish asosida o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasidagi "O'zbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Bolalar va biz" hamda "Ta'lim va taraqqiyot" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 09-sentyabrdagi 02/36/-1451-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning mazmunini yoshlar ma'naviyatini yot ta'sirlardan himoya qilish va ularni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash g'oyasi asosida boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning asosiy hajmi 132 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTASIYANING QISQACHA MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "O'quvchi bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning pedagogik asoslari" deb nomalandi va unda "bo'sh vaqt" tushunchasining pedagogik mazmuni aniqlashtirilgan, o'quvchining bo'sh vaqti muammosining pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi tahlil qilingan va o'quvchining bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishdagi pedagogik muammolar tasniflangan.

O'quvchining ta'limdagi muvaffaqiyati, uning ma'naviy, jismoniy, fiziologik jihatdan rivojlanishi, salomatligini saqlashi kun tartibining to'g'ri tashkil qilinishi

bilan bevosita bog‘liq. Hozirgi kungacha ta‘lim va tarbiya jarayonida eng katta, ammo e‘tibordan chetda qolayotgan muammolardan biri, bizningcha, o‘shib kelayotgan avlodning kun tartibi, bo‘sh vaqti masalasiga jiddiy e‘tiborning kamligi hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy, o‘zgaruvchan sharoitda o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishga nisbatan ijtimoiy-pedagogik salohiyatini to‘liq, tizimli va samarali amalga oshirish maktabdan tashqarida ishlashning odatiy sohalari va shakllarini mazmunan boyitishni talab qiladi. Bo‘sh vaqtda amalga oshirish mumkin bo‘lgan faoliyat turlari xilma-xil, ammo vaqt cheklanganligi sababli u eng muhim ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki bo‘sh vaqt dam olish va o‘qish/ishning kombinatsiyasi hamda birlashuvidir. Bo‘sh vaqt sohasida insonning ko‘pgina ijtimoiy-madaniy ehtiyojlari amalga oshirilib, unda ma‘lum istak va manfaatlari qondiriladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini oqilona tashkil qilishda ma‘naviy, psixologik, moddiy, tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar bo‘sh vaqtning quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatishadi:

- fiziologik, ijtimoiy va psixologik jihatdan aniq ifodalanadi;
- rasmiy bo‘lmasdan, erkin, faol, ijodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi;
- shaxsiyatni shakllantiradi va rivojlantiradi, shu orqali insonning yashirin salohiyati hamda mayllari ochib beriladi;
- bolalarning erkinlik va mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojini shakllantiradi;
- tabiiy iste‘dodlarni ochishga va hayot uchun foydali bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

Fransuz tadqiqotchisi J.R.Dumazediyer “bo‘sh vaqt” tushunchasini insonning o‘z hohishiga ko‘ra dam olish, o‘yin-kulgi qilish uchun yoki ularning ongi va ta‘limini rivojlantirish uchun faoliyatlar to‘plami sifatida qaraydi<sup>2</sup>. G.I.Mintz bo‘sh vaqt tushunchasi dam olish va ko‘ngil ochish uchun ishlatiladigan vaqt ekanligini ta‘kidlaydi<sup>3</sup>.

Tadqiqotda o‘quvchining bo‘sh vaqtini tashkil qilishga bilvosita ta‘sir qiluvchi sub‘ektlar sifatida quyidagilar qayd etildi: ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, maktab psixologi, ota-onalar, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, maktab tibbiyot xodimlari, to‘garak rahbarlari, mahalla, madaniy-ma‘rifiy va boshqa ijtimoiy tashkilotlar.

O‘quvchining maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish shakllari sifatida esa quyidagilar belgilandi: o‘yin faoliyati, kognitiv faoliyat, dam olish va ko‘ngilochar faoliyat, badiiy ijodkorlik, ijtimoiy ijodkorlik, mehnat (ishlab chiqarish) faoliyati, sport va dam olish faoliyati va h.z.

Qadimgi davr yunon mutafakkirlari Suqrot, Platon va Aristotellarning bizgacha yetib kelgan fikrlari asosida bo‘sh vaqt qadimgi sivilizatsiyaning, madaniyatning ajralmas qismi, zaruriy faoliyat shakli hamda fuqarolik holati ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda bo‘sh vaqt erkin faoliyat, dam olish vaqti

<sup>2</sup> Организация досуговых мероприятий // учебник для студ. Учреждений сред. проф. образования // под ред. Б. В. Куприянова. — М.: Издательский центр "Академия", 2014. —С84. (288 с)

<sup>3</sup> Ариарский М.А. Досуговедение в системе человекознания. - Л., 1990.

hamda ijtimoiy mavqe va o'z-o'zini rivojlantirish uchun makon sifatida ko'rib chiqiladi. Platon va Aristotel mehnat, dam olish, shu jumladan, sport musobaqalari va o'yinlarda qatnashish orqali insonning ma'naviy va jismoniy kamolotiga erishishini ta'kidlaganlar. Platon pedagogik nazariyasida bo'sh vaqt kognitiv faoliyat bilan bog'liq bo'lib, bo'sh vaqt doimo yoqimli narsa bilan bog'liq, shuning uchun bu vaqtda kognitiv faoliyat bilan shug'ullanish muhimligini aytadi<sup>4</sup>.

G'arbiy Yevropa pedagogikasida o'quvchi bo'sh vaqti masalasiga ilmiy e'tiborning qaratilishini tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniyada o'smir-yoshlar bo'sh vaqtining tashkil qilinishiga e'tibor 1920 yillardan boshlanadi. Bunda o'quvchi bo'sh vaqtidagi faoliyati strategiyalari ishlab chiqiladigan amaliy fan sifatida shakllanishni boshlaydi. 80-yillarda esa pedagogikaning o'ziga xos ta'lim sohasiga ega bo'lgan mustaqil bo'limi sifatida shakllanadi. 90-yillarda fanning fanlararo aloqalarini tadqiq etish va aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Hozirda Germaniyada bo'sh vaqt pedagogikasining bir qator yo'nalishlari jadal rivojlantirilmoqda<sup>5</sup>. Jumladan, nemis tadqiqotchisi Horst Orashovskiy bo'sh vaqt pedagogikasining tarixiy rivojlanishini tizimli o'rgangan<sup>6</sup>. Renata Friks pedagogik faoliyatda o'smir-yoshlarning rivojlanishida vaqtni boshqarishning o'rni va ahamiyatini o'rgangan holda, bo'sh vaqt pedagogikasi va vaqtni boshqarish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Nemis pedagogi Piter Zellman maktab ta'limi bilan bolaning darsdan tashqari faoliyati, ya'ni bo'sh vaqt pedagogikasi o'rtasidagi ko'plab aloqalarini o'rganadi. Ayni paytda aytish mumkinki, tadqiqotchi "bo'sh vaqt" tushunchasining mazmunini yetarli darajada yoritib bera olmaydi. Bizningcha, tadqiqotchining bo'sh vaqt tushunchasi doirasidagi faoliyat turlarini belgilashdagi fikrlarida chalkashliklar mavjud. Tadqiqotchi mazkur tushunchaning mazmun ko'lamini aniqlashda uning rivojlantiruvchi funksiyasini e'tibordan chetda qoldiradi, tushunchaning faqat ko'ngilochar va dam olish vaqti borasidagi mazmuniga ko'proq e'tibor qaratadi.

XX asrning 70-yillarida M.G.Bushkanets o'qituvchi tomonidan darsdan tashqari faoliyatni tashkil etishni hisobga olib, bo'sh vaqtning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi.

1. Dam olish funksiyasi - o'qish vaqtida yo'qotilgan jismoniy va ma'naviy kuchlarni tiklash.

2. Oriyentatsiya funksiyasi - kasbiy va ma'naviy yo'nalish bo'lib, bunga sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi g'oyalarni shakllantirish ham kiradi.

3. Kommunikativ funksiyasi - shaxsning individual ijodiy salohiyatini o'z-o'zini amalga oshirish, shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

3. Rivojlantiruvchi funksiyasi - kognitiv, amaliy, badiiy va ijodiy rivojlanish, hissiy va estetik to'yinganlik.<sup>7</sup>

"Bo'sh vaqt" tushunchasiga yuqoridagi mutaxassislar tomonidan bildirilgan qarashlarni umumlashtirgan holda mualliflik ta'rifini shakllantirdik. Unga ko'ra

<sup>4</sup> Мкоян Г.С. Роль и значение развития свободного времени формирования социокультурных ценностей в современном обществе Армении//Человек .Сообщество.Управление.2016.Том.17. №3.-С.124.(123-129)

<sup>5</sup> А.И.Сафуллина. Основные тенденции организации свободного времени учащейся молодежи Германии.дисс.канд.пед.наук.13.00.01.Москва.2006.-С.177.

<sup>7</sup> 1. Бушканец, М.Г. Комплексный подход к решению проблемы свободного времени школьников: метод. рекомендации к семинару кл. рук./ М.Г. Бушканец. – Казань: Пед. общ-во РСФСР. Татар. отделение, 1979.

**“Bo‘sh vaqt shaxsning mehnat, oila yoki jamiyat bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish bilan band bo‘lmagan va uning individual ehtiyojlarini qondirish bilan kechadigan vaqti”.**

Insonning bo‘sh vaqti haqli ravishda boylik hisoblanadi. Biroq insonning bu paytdagi faoliyati shaxsning rivojlanishiga, individualligini ochish va takomillashtirishga hissa qo‘shsagina, u haqiqiy boylikka aylanadi. Shundagina jamiyat o‘zining ma‘naviy salohiyatini oshiradi, butun mamlakat taraqqiyotida individual hissa qo‘shishga qodir noyob shaxsga ega bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘quvchi bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomalanadi va unda o‘quvchi bo‘sh vaqtini tashkil etishning didaktik asoslari takomillashtirilgan, o‘quvchi bo‘sh vaqtining to‘g‘ri tashkil qilinishini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning funksional modeli ishlab chiqilgan va o‘quvchining bo‘sh vaqtini tashkil etish va boshqarish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini o‘tkazish maktab tarbiyaviy ishlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida **izchillik va rejalashtirish** kabi tamoyillarga tayanadi. Bo‘sh vaqt maktab o‘quvchilarining axloqiy fazilatlaridan: vatanparvarlik, madaniy qobiliyatlaridan ijodkorlik, yetakchilik, aql-zakovat, shuningdek, muloqot va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida o‘quvchi bo‘sh vaqtini tashkil qilish tamoyillari aniqlashtirildi. Ular quyidagilar:

- **moslashuvchanlik tamoyili:** o‘quvchilar uchun faoliyatning turli shakllarini erkin tanlash va ixtiyoriy asosida tanlangan shaklga nisbatan moslashish, turli faoliyat yo‘nalishlarida o‘z kuchi va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish;

- **ijodkorlik tamoyili:** ijodiy faoliyatni rivojlantirish, jamoaviy va individual rivojlanish istagi;

- **muvaffaqiyat tamoyili:** faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan. Bola tomonidan erishilgan har qanday ijobiy natija nafaqat shaxsiy ahamiyatga, balki jamiyat uchun ham ahamiyatlidir;

- **yaxlitlik tamoyili:** pedagogik tizim komponentlarining yaxlit holda maqsadga yo‘naltirilganligi;

- **qiziqish tamoyili:** o‘quvchining bo‘sh vaqtidagi faoliyati yuqori yoki passiv faoliyat bo‘lishi unga qiziqishning mavjudligi yoki yo‘qligi bilan belgilanishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari himoyaga taqdim etilgan asosiy qoidalarni shakllantirish imkonini berdi:

- maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ta’limdan farqli ravishda uning chegaralari qat’iy tartibga solinmaydi ;

- maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqti maqsadli, individual, jamoaviy, faoliyat shakli sifatida tashkil etiladi, bunda uning mazmuni, shakllari va usullarini tanlash maktab o‘quvchilarining qiziqishlari va ehtiyojlari, ularning o‘z-o‘zini boshqarishi bilan belgilanadi;

- o'quvchi bo'sh vaqtini tashkil etishning pedagogik shartlari uning o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi belgilashi, shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuviga yordam beradi;

- maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini oqilona tashkil qilishi maktab o'qituvchilari, ota-onalar va boshqa ta'lim sub'ektlarining ta'lim salohiyati, o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati va mas'uliyatlilik darajasiga bog'liq.

Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish maktab, maktabdan tashqari muassasalarning muhim va murakkab ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik vazifasidir. O'smirlarda bo'sh vaqt madaniyatini shakllantirish bo'yicha maktabning ta'lim faoliyati tizimi ma'lum bir ijtimoiy-madaniy makon va muayyan vaqt davomida amalga oshiriladi. Bunda ota-onalar bilan muloqot va hamkorlik bolalarning bo'sh vaqtni rivojlantirishning markaziy omillaridan biridir. O'smir yoshlarda bo'sh vaqtni oqilona tashkil qila olmaslik bolaning rivojlanishida salbiy oqibatlar, jumladan, deviant xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, maktab yoshidagi bolalarning salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini ta'minlashda ta'lim sub'ektlari (ota-ona, maktab) zimmasidagi asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

O'rganilayotgan muammoning umumiy holatini tahlil qilishimiz davomida psixologik, pedagogik, uslubiy adabiyotlarda maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosi, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar yetarli darajada emasligini ko'rdik. O'quvchi bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishda maktab va oila o'zaro ta'sirining samaradorligi uchun pedagogik shartlar aniqlanmagan. O'quvchilarining kun tartibida sog'lomlashtirish ishlari texnologiyasini samarali qo'llashning pedagogik shartlari aniqlashtirildi (1-rasm).

Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishda maktab va oila hamkorligi quyidagi pedagogik shartlar asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- maktab va ota-onalarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish asosida o'smir-yoshlarning kun tartibi va sog'lom turmush tarziga qadriyatli munosabatni shakllantirish;


- maktab-o'quvchilarining bo'sh vaqtini unumli tashkil qilishda sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilimlarini mustahkamlash va kundalik hayotda qo'llash zaruratini anglashi;

- maktab va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlik faollik yondashuvi asosida, ya'ni sub'ekt-sub'ekt munosabati tarzida bo'lishini ta'minlash;

- bo'sh vaqtni tashkil qilishda oilaviy tarbiyaning tipologik xususiyatlarini hisobga olish;

- o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan faol harakatlar jarayonida o'zaro ta'sir shakllaridan foydalanish;

- maktab va oila hamkorligi asosida o'quvchilarning kun tartibi, bo'sh vaqtini tashkil qilishda shaxsiyatga yo'naltirilgan strategiyani tanlash, oilaviy an'analarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyat shakllarini tanlash asosida o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va hokazo.




**1-rasm. Sog'lomlashtirish ishlari texnologiyasini samarali qo'llashning pedagogik shartlari**

Maktab va ota-onalar hamkorligidagi davra suhbatlarida o'qituvchi yoki mutaxassisdan ota-onalar vazifalariga mos keladigan bilimlarni egallashi bilan birga o'zini o'zi tarbiyalashga qaratilgan amaliy faoliyatni ham zimmasiga olishlari lozim bo'ladi.

Maktab va oila hamkorlik munosabatlarida faollik yondashuvidan foydalanish ikkala tomon uchun faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama tushunish qobiliyatining shakllanishiga yordam beradi<sup>8</sup>. Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish tizimini yaratish ta'lim sub'ektlarining birgalikdagi keng ishtirokini talab qiladi. Tadqiqotda birinchi marta o'quvchi bo'sh vaqtining nazariy tipologiyasi o'quvchi shaxsi shakllanishining asosiy omili sifatida tahlil qilindi. Bu maktab o'quvchilari rivojlanishining turli darajalarida bo'sh vaqtdan foydalanishning yetakchi tendensiyalari va asosiy qarama-qarshiliklarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda o'quvchi bo'sh vaqtining to'g'ri tashkil qilinishini pedagogik qo'llab-quvvatlashning funksional modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Mazkur model ilmiy modellashtirishning izchillik, normativlik, ilmiylik va universallik tamoyillari asosida shakllantirilgan. Modelda o'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishga nisbatan ijtimoiy buyurtma oila, jamiyat va maktab tomonidan shakllantirilishi belgilangan. O'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish uning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda, shuningdek, jamiyatga oson ijtimoiylashuvini ta'minlashda muhim omil ekanligi qayd etiladi.

<sup>8</sup> О.А.Перегудова.Взаимодействие школы и семьи в приобщении младших школьников к здоровому образу жизни.(13.00.01)автореферат дисс.Москва -2005.-Р.20.



2-rasm. Oʻquvchi boʻsh vaqtining toʻgʻri tashkil qilinishini pedagogik qoʻllab-quvvatlashning funksional modeli

Maqsadli blok o'zida ijtimoiy buyurtma va uning sub'ektlari, maqsad va vazifalardan iborat mazmuni o'zida birlashtiradi. Ijtimoiy buyurtma maqsadni, maqsad esa o'z navbatida vazifalarni belgilab beradi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishni pedagogik qo'llab-quvvatlash sub'ektlari sifatida sog'lomlashtirish markazlari, sport klublari, ko'ngilochar dam olish maskanlari, ommaviy axborot vositalari, o'quv markazlari, umumta'lim maktablari va ilmiy tadqiqot muassasalari qayd etilgan.

Modelning mazmun bloki pedagogik komponentlarni shakllantirish va bajariladigan ishlar mazmuni kabi komponentlardan iborat. Pedagogik komponentlar sifatida ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik, integratsiyalashgan tibbiy-pedagogik va individual shaxsiy komponentlar qayd etilgan. Bajariladigan ishlar mazmuni quyidagi yo'nalishlarda tashkil qilinadi:

1) ilmiy tadqiqot – asoslovchi jarayon: muommoni aniqlash yuzasidan anketa, so'rovnoma, suhbat va intervyular o'tkazish;

2) shakllantiruvchi jarayon: “Sog'lom turmush – barkamol avlod” loyiha dasturini ishlab chiqish;

3) o'quv-amaliy ko'mak berish jarayoni: seminarlar, davra suhbatlari asosida bo'sh vaqtni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirish ishlarini olib borish;

4) tashkiliy-uslubiy o'quv jarayoni: o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quv va darsdan tashqari ishlarni oqilona ta'minlashga qaratilgan maktab jamoasining birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

Baholash blokida o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilinishiga erishish, o'quvchilarda bo'sh vaqtni maqsadga muvofiq tashkil qilish ko'nikmasining rivojlanganlik darajasi quyi, o'rta va yuqori darajalarda baholanadi:

**quyi darajada** o'quvchi bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish lozimligi va uning ahamiyatini anglamaydi;

**o'rta darajada** o'quvchi bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish lozimligini qisman anglaydi va unga amal qiladi;

**yuqori darajada** o'quvchi bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish lozimligi va uning ahamiyatini tashliq anglaydi va unga amal qiladi.

Modelning natija bloki o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilishni qo'llab-quvvatlashga erishiladi va bo'sh vaqtini maqsadga muvofiq tashkil qiladigan o'quvchi shaxsi tarbiyalanadi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtini oqilona tashkil qilish texnologisini amalga oshirish kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Bunda dastlab ijtimoiy-pedagogik komponent sifatida psixologlar, valeologlar, fan o'qituvchilari shifokorlarning ma'lumotlariga asoslanib, o'smir-yoshlarning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasini aniqlash asosida ularning yosh hamda individual xususiyatlari hisobga olinishi va kun tartibiga tegishli tuzatishlar kiritilishi maqsadga muvofiq (3-rasm).

O'smir-yoshlarning ijtimoiy qimmatli bo'sh vaqtdan individual tarzda mazmunli foydalanishiga erishish						
<b>Bo'sh vaqtni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari</b>						
Tashabbus korlik	Izchillik	Muloqotning norasmiyligi	Intensivlash tirish	Ijodkorlik	O'z-o'zini boshqarish	Muvaffaqiyat
<b>Tarkibiy qismlar</b>						
Aksiologik komponent		Kognitiv komponent		Axborot kommunikativ	Ijodiy komponent	
<b>Funksional komponentlar</b>						
Ixtiyoriylik		Mo'ljalli		Tashkiliy	Gnostik	
<b>Bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish va boshqarish shartlari</b>						
Motivatsion bosqich		Konstruktiv bosqich		Faol bosqich	Refleksiya bosqichi (o'z-o'zini baholash)	
<b>Bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish va boshqarish usullari</b>						
Oilaviy tarbiyaning tipologik xususiyatlarini hisobga olish		O'quvchi faoliyati va xulq-atvorini rag'batlantirish usullaridan foydalanish		O'quv, o'yin, mehnat faoliyat turlarini oqilona almashishini ta'minlash	Oila va maktabning faol hamkorligini ta'minlash	
<b>Bo'sh vaqt faoliyati rivojlanishining asosiy bosqichlari</b>						
<b>I bosqich</b>			<b>II bosqich</b>			
Iste'mol darajasidan ko'nikmalarni egallash)			(bilim to'plash, Ijodkorlik darajasigacha			
<b>Axloqiy fazilatlarining shakllanishi</b>						
Yetakchilik		Tashkilotchilik		Vatanparvarlik	Muloqot	
<b>Bo'sh vaqtni foydali faoliyatga aylantirish madaniyatini shakllantirish jarayonining mezon va ko'rsatkichlari</b>						
<b>Motivatsion qiymat</b>		<b>Axborot va diagnostika</b>		<b>Hissiy</b>		<b>Ijodiy</b>
O'smir-yoshlarning bo'sh vaqtga qadriyatli munosabati		Ijtimoiy foydali faoliyat turlari haqidagi bilimning mavjudligi va o'z qobiliyatlariga baho bera olish ko'nikmalarining shakllanishi		O'quvchining ijodiy, adekvat o'zini-o'zi baholashi va faoliyati natijalariga ijobiy hissiy holat		Bo'sh vaqt faoliyatini amalga oshirishda ijodiy yo'nalganlik va faoliyatda o'ziga xoslik
<b>Bo'sh vaqtni tashkil qilish madaniyatning shakllanish darajasi (yuqori, o'rta, past)</b>						
<b>Natija: O'sib kelayotgan o'smir-yoshlarda vaqtni samarali tashkil qilish qobiliyatining shakllanishi</b>						

**3-rasm. O'quvchi bo'sh vaqtni ijtimoiy foydali jarayonga aylantirish texnologiyasi**

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O`quvchining bo`sh vaqtini to`g`ri tashkil etishni pedagogik qo`llab-quvvatlash: tajriba va samaradorlik**” deb nomalanadi va unda o`quvchining bo`sh vaqtini to`g`ri tashkil qilish bo`yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni bayon qilingan hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning matematik-statistik tahlili keltirilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi o`quvchilarning bo`sh vaqtidagi faoliyati samaradorligiga ta`sir qiluvchi omillarni aniqlash va bo`sh vaqtdagi o`quvchi faoliyatini passiv faoliyatdan yuqori faoliyatga o`tkazishning samarador mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat qilib belgilandi.

12-14 yoshdagi maktab o`quvchilari bo`sh vaqtida sog`lom imidj, sog`lom turmush tarzini shakllantirishda maktab va oilaning o`zaro didaktik ta`sir yo`nalishlari belgilandi. Bunda tajriba-sinov ishlari davomida o`qituvchilar va ota-onalarning pedagogik va gigiyenik bilimlarini rivojlantirish maqsadida sog`lomlashtirish yo`nalishi bo`yicha “**Sog`lom turmush - barkamol avlod**” loyiha dasturi ishlab chiqildi. Loyiha dasturining asosiy tarkibiy qismi sifatida o`quvchilarning bo`sh vaqtini yuqori faoliyat shakli sifatida, ya`ni ularni aqliy va jismoniy rivojlantirishga asoslangan pedagogik faoliyat qamrab olindi. Loyihada umumta`lim maktablarida 5-7-sinf o`quvchilari bo`sh vaqtini oqilona tashkil qilish, bo`sh vaqtida maqsadli faoliyat yuritishini ta`minlash va shu orqali o`quvchilarning ta`lim-tarbiya jarayonidagi faolligini oshirish maqsadlari ham ko`zda tutildi.

